

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA BOLALARNI ERTA YOSHDAN TARBIYALASH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY USTUVOR VAZIFALARI

Karimova Umida Muminjanovna

Toshkent viloyati Bekobod shahar  
19-DMTT direktori

**Annotatsiya:** ushbu maqolada Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni erta yoshdan tarbiyalash tizimini rivojlantirishning asosiy ustuvor vazifalari, va ota-onalar bilan o'zaro hamkorlik ishlarini samarali tashkil qilish haqida aytib o'tilgan.

**Аннотация:** В этой статье говорилось о ключевых приоритетных задачах развития системы раннего воспитания детей в системе дошкольного образования, а также о эффективной организации взаимодействия с родителями.

**Abstract:** This article discusses the main priority tasks in developing the system for educating children from an early age in the preschool education system, as well as effectively organizing collaborative work with parents.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim tashkiloti, ota-ona, hamkorlik, ta'lim-tarbiya, pedagog, bolalar, odob-axloq.

**Ключевые слова:** организация дошкольного образования, родители, сотрудничество, воспитание, педагог, дети, манеры.

**Key words:** preschool education organization, parents, cooperation, education, pedagogue, children, manners.

*Maktabgacha ta'lim – bolaning ijtimoiy, aqliy, emotsional va jismoniy rivojlanishining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu davrda beriladigan tarbiya va ta'lim nafaqat bolaning shaxs sifatida shakllanishida, balki uning kelajakdagi o'quv va hayotiy faoliyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.* Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish va bolalarni erta yoshdan tarbiyalash tizimini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar yordamida bolalarni rivojlantirish jarayoni samaraliroq bo'ladi. Shu bilan birga, ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni kuchaytirish bolalarning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017 yil 16 avgust kuni o'tkazilgan yig'ilishda berilgan topshiriqlar ijrosini so'zsiz ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, tizimning boshqaruv tuzilmasini tashkil etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 5-6 yoshli bolalarni 100 foiz qamrab olish choralari belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu vazirlik maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun javob beradigan vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Shuningdek, vazirlik o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 30 sentabrdagi PF-5198-son Farmoniga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017 yil 30 sentabrdagi PQ-3305-son qaroriga muvofiq amalga oshiradi.

*Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni erta yoshdan tarbiyalash tizimini rivojlantirishning asosiy  
ustuvor vazifalari*

- **Bolalarning to‘laqonli rivojlanishini ta‘minlash**
- **Pedagogik malaka va kasbiy kompetensiyalarni oshirish**
- **Ta‘lim muhitini modernizatsiya qilish**
- **Ota-ona va jamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish**
- **Kompetensiyaga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimini joriy etish**
- **Raqamli va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy etish**

*Maktabgacha ta‘limning vazifalari:*

*Bolalarning to‘laqonli rivojlanishini ta‘minlash*-Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy, aqliy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi zarur. Shu maqsadda ta‘lim jarayonida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, emotsional barqarorlikni rivojlantirish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu vazifa bolaning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak.

**Innovatsion yondashuvlar:** interaktiv o‘yinlar, loyihaviy faoliyat, muammoli vaziyatlar orqali bolalarning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Hamkorlik pedagog bilan ishlaydigan oila va jamoa qadriyatlarini, turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlarini tan olish va ularni qadrlashi, shuningdek, bolalarning o‘qishi va rivojlanishiga hissa qo‘shadigan ko‘plab muhim usullarni qadrlashlarini talab qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlaydigan pedagoglar farzandlar oilada va jamoada nimalarni o‘rganayotganiga tayanib, ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bolalarni maktabga tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta‘lim” to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq bola maktabgacha ta‘limni uyda, ota-onalar mustaqil ta‘lim berish orqali yoki doimiy faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida shuningdek, maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta‘limiga o‘tishi hamisha uning hayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani uydaligidayoq maktab ta‘limiga tayyorlash, uncha qiyin bo‘lmagan bilim, tushuncha, ko‘nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo‘ladi. Bolalarni maktabga tayyorlash, birinchidan maktabgacha ta‘lim tashkilotida tarbiyaviy ishini maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni umumiy, har tomonlama rivojlantirishning yuqori darajasini ta‘minlaydigan, ikkinchidan bolalarni maktabning boshlang‘ich sinflarida o‘zlashtirishlari lozim bo‘lgan o‘quv fanlarini egallashga maxsus tayyorlashni ta‘minlaydigan qilib tashkil etilishini nazarda tutadi.

*Demak, farzand tarbiyasini ota* – onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota – onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas‘uliyati hamda qarindosh – urug‘lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota – ona obro‘si farzand tarbiyasida ma‘naviy ozuqa bo‘ladi. Bu ma‘naviy ozuqa bola tarbiyasida “ufq” ni ko‘zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo‘shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota – onalar ijobiy o‘rnak bo‘ladigan kishilardir, ya‘ni obro‘li ota – onalardir. Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, MTT ham e‘tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a‘zolari bo‘ladi. Aksariyat xollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirilganda uning so‘z boyligi zaxirasi bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko‘proq e‘tibor beriladi. Ota-ona, hatto ayrim o‘qituvchilar xam bola qanchalik ko‘p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo‘ladi, deb o‘ylaydilar. Aslida esa unday emas, fan-texnika, ommaviy axborot vositalarining keng

tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida so'zib yurgandek bo'lmokdalar.

*Pedagogik malaka va kasbiy kompetensiyalarni oshirish*-Bolalarning sifatli tarbiyasi pedagoglarning professional malakasiga bog'liq. Shu sababli tarbiyachilarni zamonaviy pedagogik metodlar, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o'rgatish muhimdir.

**Innovatsion yondashuvlar:** STEAM, Montessori, Reggio Emilia kabi metodikalarni joriy etish, elektron portfoliolar va onlayn monitoring vositalaridan foydalanish.

*Ota-ona va jamiyat bilan hamkorlikni rivojlantirish*-Ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga faol jalb qilish maktabgacha ta'lim tizimining samaradorligini oshiradi. Ota-ona bilan muntazam muloqot, maslahatlar, onlayn platformalar orqali farzandning rivojlanishi haqida axborot berish samarali natija beradi.

**Innovatsion usullar:** mobil ilovalar orqali bolaning rivojlanishini kuzatish, oilaviy loyihaviy faoliyatlar, virtual maslahatlar va yig'ilishlar.

Maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni erta yoshdan tarbiyalash tizimini rivojlantirishning ustuvor vazifalari bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini oshirish, ta'lim muhitini modernizatsiya qilish, ota-ona va jamiyat bilan samarali hamkorlikni tashkil etish, kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish va raqamli texnologiyalardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish orqali bolalarning shaxs sifatida to'laqonli rivojlanishi, ta'lim sifatining oshishi va maktabgacha ta'lim tizimining samarali faoliyati ta'minlanadi. Innovatsion pedagogik yondashuvlar, zamonaviy texnologiyalar va ota-ona bilan mustahkam hamkorlik maktabgacha ta'limning sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

**Xulosa qilib**, maktabdagi o'qishga aqliy tayyorlik bolalarni aqliy va nutqiy rivojlantirishning o'zaro bog'langan tarkibiy qismlardan tarkib topadi. Bilish faoliyati, bilish qiziqishlari, bola tafakkuri usullari, atrof dunyo haqidagi anglangan tasavvurlar, nutq va elementar o'quv faoliyati umumiy darajasining birligi, maktabda muvaffaqiyatli o'qishning zaruriy sharti hisoblanadi, bu esa biz pedagoglar hamda ota-onalarga katta ko'mak beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (barcha yosh guruhlari uchun) 2018 y.
2. O.U. Hasanboeva va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. Pedagogika kolleji uchun o'quv qo'llanma (3-nashr) T.: "Ilm ziyo", 2012y.
3. <http://www.edu.uz>—O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsusta'lim vazirligi sayti.
4. Abdullayeva N.Sh. Improving the preschool education system on the basis of cluster technologies// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation, B. 36872-36886 2021 y
5. Abdullayeva N.Sh. Pedagogical Conditions for the Development of Artistic Perception in Children of the Fifth Year of Life in the Process of Familiarization with Works of Fine Art// International journal of multidisciplinary research and analysis ISSN(print): 2643-9840, ISSN(online): 2643-9875 Volume 03 Issue 12 December 2020 DOI: 10.47191/ijmra/v3-i12-09, Impact Factor: 5.522 Page No.- 321-323
6. Valiyeva F.R., Sharipova G.N. Innovative technologies in improving the management of preschool educational organizations//International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.9756/INTJECSE/V14I5.94 ISSN: 1308-5581 Vol 14, Issue 05 2022